

AYOL MUALLIF OVOZINI TARJIMADA SAQLASH MASALALARI: O'ZBEK TILIDAGI TAJRIBALAR

Ezoxonova Nasimaxon Esorxonovna

Oriental Universtiteti Tillar-2 kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimada gender masalalari va ularning ayol mualliflar asarlarida qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi. Ayol yozuvchilarning asarlari nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki ijtimoiy va gender nuqtayi nazardan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Tadqiqotda Jeyn Ostin, Sharlotta Bront kabi klassik ayol mualliflarning ingliz tilidagi asarlari va ularning o'zbekcha tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, ayol qahramonlarning nutqi, ruhiy kechinmalari hamda genderlashgan ijtimoiy rollar tarjimada qanday ifodalangani o'rganiladi. Maqola, shuningdek, feministik tarjima nazariyasi asosida tarjimonning tanlovi, gender sezgirligi va madaniy tafovutlarning tarjima jarayoniga ta'siri haqida xulosalar beradi.*

Kalit so'zlar: *gender, tarjima, feministik tarjima, ayol mualliflar, o'zbek tili, adabiy tarjima, lingvistik birlik, madaniy qadriyat*

PRESERVING THE FEMALE AUTHOR'S VOICE IN TRANSLATION: EXPERIENCES IN THE UZBEK CONTEXT

Annotation: *This article examines issues of gender in translation and their manifestation in the works of female authors. The writings of women authors are distinguished not only from an artistic and aesthetic perspective, but also from social and gender viewpoints. The study conducts a comparative analysis of the works of classical female writers such as Jane Austen and Charlotte Bronte in English and their Uzbek translations. Special attention is given to how the speech of female characters, their inner experiences, and gendered social roles are rendered in translation. The article also draws conclusions, based on feminist translation theory, regarding the translator's choices, gender sensitivity, and the impact of cultural differences on the translation process.*

Keywords: *gender, translation, feminist translation, female authors, Uzbek language, literary translation, linguistic unit, cultural values.*

СОХРАНЕНИЕ ГОЛОСА ЖЕНЩИНЫ-АВТОРА В ПЕРЕВОДЕ: ОПЫТ УЗБЕКСКОГО КОНТЕКСТА»

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы гендера в переводе и их проявление в произведениях женщин-авторов. Творчество писательниц отличается не только художественно-эстетическим аспектом, но и социальным и гендерным измерением. В исследовании проводится сравнительный анализ произведений классических женщин-авторов, таких как*

Джейн Остин и Шарлотта Бронте, на английском языке и их узбекских переводов. Особое внимание уделяется тому, как в переводе передаются речь женских персонажей, их внутренние переживания, а также гендерные социальные роли. Статья также делает выводы на основе теории феминистского перевода о выборе переводчика, его гендерной чувствительности и влиянии культурных различий на процесс перевода.

Ключевые слова: *гендер, перевод, феминистский перевод, женщины-авторы, узбекский язык, литературный перевод, лингвистическая единица, культурные ценности.*

Tarjima nafaqat til vositasida matnni bir tildan ikkinchisiga o'tkazish, balki ma'lum madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ham yetkazish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ayol mualliflarning asarlarini tarjima qilish masalasi yanada murakkablashadi. Chunki ularning ovozi, dunyoqarashi va yozuv uslubi ko'pincha patriarxal jamiyatdagi gender rollarini shubha ostiga qo'yadi yoki ularga qarshi chiqadi. Bu esa tarjimada maxsus yondashuvni talab etadi. So'nggi yillarda feministik tarjima nazariyasi adabiy tarjima jarayonida ayol mualliflarning ovozini to'liqroq va sezilarliroq ifodalashning muhim metodologiyasi sifatida qaralmoqda. O'zbek tarjimachiligida esa bu borada yetarli tadqiqotlar mavjud emas. Shu bois, ushbu maqola Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" kabi klassik asarlari misolida ayol mualliflarning ovozi o'zbek tilidagi tarjimalarda qanday ifodalanganini tahlil qilishga qaratilgan.

Tarjima jarayonida gender tushunchasi alohida e'tibor talab etadigan masalalardan biridir. Chunki matn nafaqat lingvistik birliklardan, balki muallifning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei va madaniy qadriyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ayol mualliflar asarlarida bu holat yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ularning matnlari ko'pincha patriarxal jamiyatdagi gender tengsizliklarini ochib beradi yoki ularni tanqid qiladi. Feministik tarjima nazariyasida ayol mualliflarning ovozini tarjimada yo'qotib qo'ymaslik masalasi markaziy o'rinda turadi. Shuang Vey (2024) aytganidek feministik qarashga ega tarjimon matnni qayta ishlash jarayonida uni feministik tamoyillarga mos tarzda shakllantirishi mumkin. Tarjimonning vazifasi nafaqat matnni "aynan" yetkazish, balki undagi ayol dunyoqarashini, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan tanqidini ham o'quvchiga tushunarli qilib ifodalashdir. Feministik tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari:

- Ayol ovozini tarjimada saqlash va kuchaytirish;
- Ayol qahramonlarning tilida mavjud nozik ma'no va hissiyotlarni yo'qotmaslik;
- Patriarxal normalarni tasdiqlovchi tarjimalardan saqlanish
- Tarjimonning "neytral" emas, balki ongli va tanqidiy pozitsiyasini ko'rsatishi.

Misol uchun, Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" asarida Elizabet Bennet obrazining mustaqil fikrlashi va erkaklar ustunligiga bo'lgan tanqidi-feministik ruhdagi elementdir. Ushbu xususiyatni tarjimada saqlab qolish muhim, chunki

noto'g'ri tanlovlar (masalan, yumshatish, neytrallikka yo'naltirish) ayol muallif ovozi sustlashtirib yuborishi mumkin. Shu bois, ayol mualliflar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat til, balki madaniy va gender tafovutlarini ham hisobga olish, badiiy va ideologik maqsadni uyg'unlashtirish zarur. Jie Guo (2025) aytganidek feministik adabiyot jamiyatni ayol nuqtayi nazaridan o'rganadi, ijtimoiy haqiqatni yoritadi hamda ozodlikka intilib, teng muhabbatni izlashga jur'at etuvchi ayol obrazlarini shakllantiradi. Ushbu asardagi bosh qahramon Elizabet Bennet ayol muallif ovozi eng yorqin timsollaridan biridir. U o'z davri jamiyatidagi ko'plab ayollardan farqli o'laroq, mustaqil fikrlaydigan, mulohazali va erkaklarning ustun mavqeini so'zsiz qabul qilmaydigan obraz sifatida gavdalanadi. Elizabetning asosiy quroli uning nutqi, ya'ni o'z fikrini ochiq ifodalash, kinoya va hazil orqali jamiyatdagi patriarxal qarashlarga qarshi turishdir. Elizabetning Darsiga qarata aytgan mashhur so'zlari bunga yorqin misoldir:

“From the very first moment I met you, your arrogance and conceit... made me realize that you were the last man in the world I could ever be prevailed upon to marry.”

Mazkur jumla qahramonning irodasi mustahkamligini va o'z davri uchun noodatiy bo'lgan qarashlarini ko'rsatadi. U ayollarning iqtisodiy xavfsizlik uchun majburiy nikohga kirish tendensiyasiga bo'ysunmaydi, balki mehr va hurmat bo'lmagan joyda turmush qurishni qat'iy rad etadi. Elizabet obrazi orqali Austen ayol ovozi faqatgina maishiy muhitda emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarga qarshi kurashda ham ifodalaydi. Tarjimalarda bu o'ziga xoslikni saqlash juda muhim: agar qahramonning keskinlik va mustaqilligi yumshatib yuborilsa, muallifning feministik ruhdagi pozitsiyasi ham xiralashib qolishi mumkin. Luping Sang (2021) aytganidek, Jeyn Ostin yangi davrda Elizabet obrazi orqali ayol qiyofasini muvaffaqiyatli tasvirlay oldi. U Elizabet vositasida erkak va ayol tengligi asosidagi nikohga bo'lgan munosabatini ifodaladi hamda an'anaviy nikoh va muhabbat tushunchasiga tanqidiy qarashni bildirdi. Demak, Elizabeth Bennet obrazi tarjimada gender sezgirligi bilan yondashishni talab etadi, chunki u o'z davri ayollari uchun “ovozi baland, mustaqil va iroda sohibasi” sifatida yaratilgan.

Ayol mualliflarning asarlarini boshqa tilga tarjima qilish jarayonida asosiy muammolardan biri — ularning ovozi va qarashlarini to'laqonli yetkazib berishdir. Jeyn Ostinning “Andisha va g'urur” romani misolida ham bu masala juda muhim. Chunki muallif ayol qahramonlar orqali patriarxal jamiyatning ijtimoiy me'yorlarini tanqid qiladi va ayollarning mustaqil qarashlarini ilgari suradi. Elizabet Bennetning mashhur iboralari tarjimada o'z kuchini yo'qotmasligi kerak. Masalan, uning Darsiga aytgan gaplari:

“From the very first moment I met you, your arrogance and conceit... made me realize that you were the last man in the world I could ever be prevailed upon to marry.”

Agar bu jumla o'zbekchaga yumshatilgan tarzda tarjima qilinsa, qahramonning qat'iyati va irodasi to'liq ifodalanmay qoladi. Shuning uchun bunday jumalarni keskin ohangini saqlagan holda tarjima qilish muhim. Shuningdek, Austen o'z romanida ko'plab ironik va kinoyali ifodalardan foydalanadi. Bunday uslub ayol muallif ovozining o'ziga xos belgisi bo'lib, uni tarjimada yo'qotib qo'yish muallifning badiiy mahoratini pasaytirib yuboradi. Tarjimon o'zbek tilida ham shunga mos badiiy vositalarni tanlashi kerak. Gender o'ziga xosliklari, shuningdek, ayol qahramonlarning nutqida ham yaqqol ko'rinadi. Elizabetning hazilkashligi, Charlot Lukasning hayotiy pragmatizmi yoki Bennet xonimning tashvishlari orqali Ostin o'z davri jamiyatidagi ayollarning turli qiyofalarini yaratadi. Bu qiyofalarni tarjimada farqlab ko'rsatish ayol-muallif ovozini saqlashning muhim qismidir.

Shunday qilib, "Andisha va g'urur" tarjimalarida gender masalalari faqat til darajasida emas, balki uslubiy va madaniy darajada ham muhim rol o'ynaydi. Tarjimonning vazifasi muallifning badiiy ovozini buzmasdan, o'zbek o'quvchisiga ham ayol dunyoqarashining kuchini yetkazishdir.

Ayol mualliflar asarlarini tarjima qilishda eng muhim masalalardan biri -ularning ovozini buzmasdan yoki xiralashtirmasdan o'quvchiga yetkazishdir. Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romanida ayol qahramonlarning nutqi, fikrlari va ruhiy kechinmalari aynan muallifning ijtimoiy tanqidi va feministik ruhini ifodalaydi. Shu sababli, tarjimonda kichikgina so'z tanlovi ham ayol muallifning ovozini sezilarli darajada o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, Elizabet Bennetning mustaqilligi va qat'iyati tarjimada "yumshatib yuborilsa", u o'z davri uchun inqilobiy bo'lgan ayol ovozini yo'qotadi. Aksincha, tarjimonda qahramonning ohangini, kinoyasini va keskinligini saqlash — o'zbek kitobxoniga ham Jeyn Ostinning haqiqiy badiiy niyatini etkazadi.

Shuningdek, ayol muallifning ironik uslubini tarjimada saqlash juda muhim. Austen o'z romanida ko'plab hazil va kinoya orqali jamiyatdagi gender tengsizliklarini fosh qiladi. Agar bu hazil o'zbek tilida "odatdagi jiddiy uslub" bilan berilsa, muallifning ayol ovozi o'z kuchini yo'qotadi. Bundan tashqari, tarjimonning gender sezgirligi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi "independent woman" iborasi tarjimada "o'ziga to'q ayol" tarzida emas, balki "mustaqil ayol" sifatida berilishi kerak, chunki bu qahramonning jamiyatdagi rolini va muallifning niyatini to'liq ifodalaydi. Shunday qilib, ayol muallif ovozini tarjimada saqlash masalasi nafaqat til darajasida, balki ma'no, uslub va ijtimoiy kontekstni to'liq yetkazishda ham namoyon bo'ladi. Jeyn Ostin misolida ko'ramizki, tarjima faqat so'zlarni o'tkazish emas, balki ayol dunyoqarashini, uning jamiyatdagi o'rnini va qarashlarini yangi madaniy muhitda qayta tiklashdir.

Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romani tarjimalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ayol muallif ovozini saqlash tarjima jarayonida o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Jon Lexte (1994) aytganidek, feminizm ayollarning o'z qadriyatlari va tushunchalarini, inson sifatidagi qadr-qimmatini hamda madaniyatga qo'shgan hissasini e'tirof etadi. Elizabet Bennet obrazi orqali muallif ayollarning mustaqil

qarashlarini, jamiyatdagi patriarxal me'yorlarga qarshi kurashini va sevgi hamda hurmatga asoslangan nikoh idealini ifodalaydi. Bu jihatlar tarjimada yo'qolib qolsa, asarning asosiy feministik ruhiyati va muallifning adabiy maqsadi to'liq aks etmaydi. Tarjimon uchun asosiy vazifalardan biri — ironiyani, keskinlikni va ayol qahramonlarning mustaqilligini o'zbek kitobxonlari uchun ham sezilarli darajada yetkazishdir. Chunki Ostin uslubi aynan shu jihatlari bilan adabiyot tarixida alohida o'rin egallagan. Amaliy tahlil shuni ko'rsatadiki:

-Ayrim o'zbekcha tarjimalarda ayol qahramonlarning qat'iyati biroz yumshatilgan;

-Ayrim joylarda esa ayolning mustaqil ovozi "odatdagi uyatchanlik va itoatkorlik" kabi stereotiplarga moslashtirilgan;

Ayol mualliflar asarlarini tarjima qilish masalasi nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham murakkab jarayondir. Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romani misolida ko'rib o'tganimizdek, ayol ovozi, uning mustaqil qarashlari va patriarxal jamiyatga nisbatan tanqidlari tarjimada to'liq saqlanib qolishi juda muhimdir. Elizabet Bennet obrazida aks etgan mustaqillik, iroda va sevgi asosidagi nikoh g'oyasi XIX asr Angliyasida yangilik bo'lgani kabi, bugungi o'quvchi uchun ham dolzarbdir. Shu jihatdan, tarjimada muallifning ironiyasi, kinoyasi va ayol qahramonlarning keskin nutqi to'liq ifodalanishi asarning badiiy qiymatini ham, feministik ruhini ham saqlab qoladi.

O'zbek tarjimachiligida bu kabi asarlarni tarjima qilishda feministik tarjima nazariyasi tamoyillaridan foydalanish zarur. Chunki bu yondashuv nafaqat muallif ovozini himoya qiladi, balki o'zbek kitobxoniga ham ayol mualliflarning o'ziga xos qarashlarini aniq va to'laqonli yetkazish imkonini beradi. Shunday qilib, "Andisha va g'urur" tarjimasi genderlashgan ijtimoiy munosabatlarni o'rganish, ayol ovozining badiiy ifodasini tahlil qilish va feministik tarjima yondashuvlarini qo'llash uchun muhim manba sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jane Austen. "Pride and Prejudice" London T.Egerton, 1813
2. John Lechte. "Fifty Key Contemporary Thinkers". [M]. Routledge, 1994, P159.
3. Jie Guo. "An Analysis of Jane Austen's Feminist Thoughts". International Journal of Education and Social Development ISSN: 3078-9931 (Print), ISSN: 3078-2287 (Online) | Vol. 2, No. 3, 2025
4. Luping Sang. "A Feminist Analysis of Pride and Prejudice". International Journal of Education and Technology. JUNE 2021 VOLUME2 NUMBER2
5. Shuang Wei. "The Female Consciousness in Jane Austen's Works and Literary Translation Strategies". Academic Journal of Humanities & Social Sciences ISSN 2616-5783 Vol.7, Issue 12: 113-116, DOI: 10.25236/AJHSS.2024.071218